

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda «Isine tirkelip tigilsin!..» povestinde ótken ásirniń 80-jıllarındaǵı turǵınlıq dáwirinde mámlekettegi talan tarajlıq, tonaw-shılıq, tirilerdi de qoya berip ólilerdi «tonaw»ǵa ótken ayırım kimselerdiń jan túrshiktirerlik qılwalı, morallıq jaqtan buzılǵan jámiyette adamlardıń, hátte, birin-biri aldawshılıq, paraxorlıq jolına ótip ketiwi sıyaqlı jinayatlı

isleri, jámiyette usınday awır jinayatlardıń zań xızmetkerleriniń ózleri tárepinen shólkemlestiriliwi nátiyjesinde insan qádiriniń ayaq astı bolıw jaǵdayları burmalamastan, ashıqtan-ashıq súwretlenedi. Sh.Seytovtıń «Isine tirkelip tigilsin!..» povesti bul baǵdarda dáwir haqıyqatlıqların kórkem obrazlar arqalı sheber súwretlep bergen realistlik shıǵarmalardıń biri bolıp tabıladı.

Ádebiyatlar

1. Алламбергенов К. Дәуір, әдебиет хәм талап. 1986-жылдың әдебий жыл жуўмағы. // «Өмиўдәрәя». – Нөкис: 1987. №5. 94-б.

2. Бахадырова С. "Китаби дедам Қоркут", "Қоблан", "Едиге" хәм хәзирги әдебиет хәққинда ойлар. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992.

3. Есенов Ж. Поэзиядан басланған жоллар. // «Еркин Қарақалпақстан». – Нөкис: 1997. № 93. 2-август.

REZYUME. Maqolada yozuvchi Sh.Seytovning "Isine qosip tigilsin" povestida obraz yaratish mahorati haqida fikr yuritiladi. Xususan, xarakter yaratishdagi psixologik jihatlar batafsil tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается мастерство образ в повести «Исине косып тигилсин» писателя Ш. Сейтова. В частности, подробно анализируются психологические аспекты создания персонажа.

SUMMARY. The article discusses the skill of creating an image in the novel "Isine qosip tigilsin" by writer Sh. Seytov. In particular, the psychological aspects of character creation are analyzed in detail.

IKROM OTAMURODNING YOLG'IZLIK FALSAFASIGA YONDASHUVIDA

RUHIYAT TALQINLARI

S.Ch.Jumaeva – filologiya fanlari nomzodi

Alfraganus universiteti

Tayanch soʻzlar: shoir, teran tafakkur, yolgʻizlik, gʻoyaviy-falsafiy niyat, falsafiy mushohada, badiiy-estetik taʼsir, maʼnaviy-maʼrifiy jihat.

Ключевые слова: поэт, глубокое мышление, одиночество, идейно-философская интенция, философское наблюдение, художественно-эстетическое воздействие, духовно-просветительский аспект.

Key words: poet, thoughtful thinking, loneliness, ideological-philosophical intention, in philosophical observation, artistic-aesthetic influence, spiritual-educational aspect.

Kirish. Sheʼriyatda mavzu, ohang va soʻzning bir-biri bilan uygʻun inʼikosi badiiy mukammallikni taʼminlaydi. Turli avlodga mansub shoirlar sheʼriyati oʻzaro taqqoslansa, har bir davrga xos faol badiiy soʻz, obrazli ifodalarni uchratamiz. Ikrom Otamurod sheʼrlarida bu xil badiiy obrazlar talaygina. Ularning aksariyati shoir ijodida anʼanaviylik kasb etgan. Jumladan, *kangul/koʻngil, ishq, oshiq, hijron, vasl, ozor, sogʻinch, gʻarib, xazon, yaproq, toʻrgʻay, yulduz, oy, togʻ, yolgʻizlik, sukut/sukunat, qaldirgʻoch, soʻz, mehr, yoʻl, vaqt, makon* kabi timsolli obrazlarni keltirish mumkin. Bu obrazlarning aksariyati barcha davr sheʼriyatida, xususan, mumtoz adabiyotda ham koʻplab qoʻllaniladi. Ikrom Otamurod sheʼrlarida bu obrazlar mavzu va ohangga mos ravishda oʻz maʼno qamrovini kengaytirgan. Shoir soʻzlarni qayta kashf etib yangilagan. Albatta, bunda anʼanaviy obraz zamiridagi maʼnolar qatlamlari butkul yoʻqolib ketmaydi, ularning qaʼtida maʼnolar tadriji saqlanadi.

Asosiy boʻlim. Alohida olingan soʻz obrazga aylanmasligi mumkin. Adabiyotshunos olim B. Sarimsoqovning qayd etishicha, *"Soʻzning oʻzi badiiy kontekstda boshqa soʻzlar bilan munosabatga kirishib, badiiy obrazga aylanadi"* [1:39]. Badiiy obrazning voqe boʻlishida esa nafaqat shoir badiiy tafakkuri, balki zamon ruhi, turli ijtimoiy qarashlar, estetik mezonlar va muayyan adabiy jarayon ham muhim oʻrin tutadi. Bu kabi omillar muayyan obrazning oʻziga xos mazmun kasb etishiga sabab boʻladi. Chunki har qanday badiiy asar kabi sheʼriy asar mazmunini yaxlitlashtirib turuvchi bosh gʻoya mavjud. Bosh gʻoya sheʼriy matndagi barcha soʻzlarni yashirin tarzda oʻz izmiga boʻysundiradi va asar gʻoyasining ifodasi boʻlmish sheʼriy matnga xos poetik mazmun bagʻishlaydi. Soʻz ana shu jarayonda tovlanib, tuslanadi. Shoirning u

yoki bu anʼanaviy obrazga qanday poetik maʼno yuklaganini kitobxon asar mutolaasidan soʻnggina anglab etadi. Buni sheʼriy matndagi barcha soʻz – obrazlar misolida kuzatish mumkin. Zero, badiiy asarni idrok etish oʻzlikni anglash bilan bogʻliq holda kechadi. Shuningdek, badiiy asarni idrok etish mexanizmi sifatida empatiya, yaʼni oʻzini obraz bilan tenglashtirish singari holatlar ham mavjudki, bu esa oʻquvchining kuchli darajada emotsional taʼsirlanishiga sabab boʻlishi mumkin. Ayni hodisa – ijobiy va salbiy emotsional holatlarning bir-biriga oʻtishi bilan bogʻliq murakkab jarayon boʻlib, shaxsning oʻzligini qayta tushunishga undaydi va bu esa uning qadriyatlar tizimida toʻntarish yasashga qodir. Shu maʼnoda, quyidagi misralarda kangul/koʻngil obrazining umumlashma poetik maʼnosi oʻzlikni anglash – idrok etish vazifasida keladi:

Hayroning ham kanglungda,

Vayroning ham

kanglungda.

Oring ham kanglungda,

Xoring ham kanglungda...

Toʻzing ham kanglungda,

oʻzing... ham kanglungda... oʻzing... ham kanglungda...

[2:32].

Avvalo, "oʻzlikni anglash" deganda sheʼrxon nimalarni tushunadi? Yoki his qiladi? Nazarimizda, bu tushunchani izohlashdan oldin, "oʻzlik" soʻzining oʻzi nima ekanligini bilib olish lozim. Soʻzning sirtidan ham koʻrinib turganidek, "oʻzlik"ning oʻzagi "oʻz"dir. Yaʼni "oʻzlik" "oʻz"ga tegishlidir. "Oʻz" esa "asl" demakdir. Xalqona aytganda, inson bir kuni oʻziga "Men kimman" degan savolni bergan zahoti u oʻzini anglash yoʻliga chiqqan, birinchi qadamini qoʻygan boʻladi. Shoir "Hayroning ham,

Vayroning ham, Oring ham, Xoring ham, To'zing ham, o'zing... ham..." kabi ta'kidlari orqali "o'zlikni anglash" tushunchasini "kangul" obrazi atrofida birlashtiradi. Bu tarz, shubhasiz, she'rxon ko'ngliga alohida bir zavq bag'ishlaydi va uni mushohada qilishga undaydi.

Xolislik hamma davrlarda ham qadrlangan. Biroq uni "kangul botini"dan o'tkazib his qilish, unga rioya etish hammaga ham nasib etavermaydigan bir hol. Shoir aksariyat asarlarida "kangul botini"ga nazar tashlar ekan, nogahon yolg'izlik olamiga ro'baru keladi. Va yolg'izlik olami zamiridagi botiniy ma'no ko'lamini kengaytira borib, uning zohiriy sirlarini anglatish va echimini topishga harakat qiladi. Anglatganda ham juda tushunarli, kishilarning qon tomiridan qalbiga uriladigan tarzda anglatadi. Shoir bir she'rida yozadi:

Yolg'izlik – sen ruhimda yashnagan xazon,

ruhimda qurigan mo'g'ja sen – yolg'izlik.

Yolg'izlik – sen ruhimda sevilgan azob,

ruhimda chirigan furja sen – yolg'izlik. [3:170]

Yolg'izlik – falsafiy antropologiyada inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, inson ba'zan yolg'izlikka intiladi. Yolg'izlikka intilish – o'zi bilan o'zi qolish demak. Biroq shoir Ikrom Otamurod she'riyatida bo'y ko'rsatuvchi yolg'izlik tahliliga bunday izohlar bilan yondashish to'g'ri emas. Chunonchi, bu izohga tayanilsa, shoir yolg'izlik, so'qqabosh yashash, tanholikda kun kechirishni targ'ib etgan bo'ladi. Shoir nazdidigi yolg'izlik o'z botiniga nazar tashlash, o'zini tanish demakdir. Yolg'izlik olami – ko'ngil olami, ruhiy olamdur. Bu olamni anglash ikkinchi olamni, ya'ni ma'naviy olamni kashf qilish bilan barobardir. Bu olam zohiriy olamdan ustun va sirli, inson komilligini ta'minlovchi olamdur. Yolg'izlik – ruhning Haqqa yuzlanishi uchun imkon yaratuvchi vosita. Ikrom Otamurod she'rlari zamirida ayni shu haqiqat mujassam. Zero, "Kangul kengliklarida" insonning ruhiy holatlarini o'ziga xos badiiy tasvirlarda ifodalaydigan shoir yolg'izlik falsafasini "ruhimning guli", "ruhimning qadog'i", "ruhimning yo'li", "ruhimning sadog'i" singari sifatlarda ta'riflashi bejiz emas:

Yolg'izlik – sen ruhimning guli,

ruhimning qadog'i sen – yolg'izlik.

Yolg'izlik – sen ruhimning yo'li,

ruhimning sadog'i sen – yolg'izlik. [3:170].

Shoir she'rlarida yolg'izlik falsafasining ijodiy topilmalarini kashf etishdagi badiiy vazifalari o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Masalan, "Yolg'iz ot..." deb nomlangan she'rida shoir kitobxonni mehr haqida, insoniy fazilatlar haqida o'ylashga undaydi:

Yolg'iz ot eladi.

Bir najot istab.

Madad bo'lsin unga qanoat, sabr.

Nega sukut ichra qoldingiz to'xtab?!

Qalblarni tark etgan Mehr! [3:28].

"... Bunda so'z "yolg'iz ot" metaforasi vositasida yolg'izlanib, horib borayotgan mehrni alqash, siylashga qaratilgan. Shoir go'yo undan ko'ngil so'raydi, "hayt"deya madad berishni istaydi. Go'yo mehrga mehr beradi, unga sabr-qanoat tilaydi" [4:7].

Shoirning yolg'izlik falsafasiga yondashuvida uning o'zi kashf etgan ruhiy ko'ngil qadriyatlarini, hayotiy tajribasi, hikmatgo'ylik iqtidori, tafakkur qobiliyati aniq aks etadi. B.S.Meylax iborasi bilan aytganda, "Ijodkor shaxs hayotni

boshqalardan o'zgacharoq ko'rishi va aks ettirishi muhim sifatlardan biridir"[5:422]. "Yolg'izlik" nomli she'rida shoir yolg'izlik obraziga ijodiy yondashadi va unga ijtimoiy ma'no yuklaydi:

Hayotning zahrini ichgan kuyik jon,

bir ma'nini anglab etdi so'ng fursat:

yuragida tanho yasharkan inson,

davralarda yolg'iz ekan Haqiqat [6:95]

She'rida yolg'izlik falsafasining haqiqat tushunchasiga kontrast qo'yilishi shunchaki qayd emas. Bunda haqiqat tushunchasi zamirida fikrning obyekt bilan mos kelishiga ishora mavjud. Illo, haqiqatga olib boruvchi yo'llar turlicha bo'lishi mumkin. Ammo haqiqat – yagona, yolg'izdir.

Yolg'izlik obraziga yuklangan poetik ma'no shoir ijodining boshqa asarlaridagi ayni obraz semantikasiga qiyos etilsa, yanada aniq ko'rinadi. Bunda shoir ko'nglidan kechgan fikrlarni anglashga, uning ijodiy laboratoriyasiga kirib borishga niyatlangan kitobxon ijodkor taxayyulidagi ma'no qatlamlarini ochishga muvaffaq bo'ladi. Yolg'izlik xassos shoir Ikrom Otamurod botnidagi sirli bir hayot, cheksiz bir xayol sifatida gavdalanadi. Zero, shoir o'z xayolot olamida o'zini erkin his qilmas ekan, uning she'rlari bir muddatgina yashab, oxir oqibat, tanazzulga yuz tutmog'i ayon haqiqat. Shundan xayolot dunyosiga g'arq bo'lgan shoir osoyishta va chekka joy – yolg'izlikdan qo'nim topadi. Qolaversa, ijodkor taxayyulida tiniqlik, sokinlik bo'lmas ekan, voqelikni ham teran his etishi mahol. Uning uchun xayol yolg'izlikda hamroh, hazin chog'larida yupanch, tushkun kezlarida tayanch bo'la oladi. Illo, ijodkorning ijodkorligi ham taxayyul olamining nechog'lik keng ekanligiga qarab belgilanadi. Chunki hayotiy voqelikning, ba'zan u haqdagi orzu-umidlarning badiiy ifodasi yolg'izlikda xayol orqali suvratlanadi:

Yolg'iz olamda yolg'izman,

Ruhim ostonasida turar

yolg'izlik... [2:74].

– der ekan, shoir yolg'izlikning badiiy-estetik vazifasini xoslab ko'rsatadi:

Umid+ yolg'izlik= xotira.

Xotira+ umid= yolg'izlik.

Yolg'izlik + xotira =umid. [2:73].

Ikrom Otamurod she'riyatida ijtimoiy mavzuning etakchi o'ringa chiqishi undagi an'anaviy obrazlarga ham ijtimoiy mazmun yuklanishi bilan alohidalik kasb etadi. "Ijtimoiy dard – deb yozadi adabiyotshunos D. Qur'onov – ijodkorning shaxsiy dardiga aylanmasa, ijodkor o'sha dardni chinakamiga qalbidan kechirmasa, ... "yalang'och ijtimoiylashuv" yuzaga keladi. Sho'ro davri adabiyotining eng katta fojiasi ham shu edi. Totalitar tuzum barchaning birdek o'ylashini taqozo etgandiki, bu narsa jamiyatda shaxs maqomining susayishi, jumladan, ijodkor shaxsining emirilishiga olib keldi. Natijada ko'plab asarlarda ijtimoiy dard ijodkorning qalb qozonida obdon qaynamasdan, faqat rasmiy mafkuraning badiylashtirilgan ifodasi bo'lmish shiorbozlikka to'la she'rlar, hayotni rasmiy mafkura ko'zi bilan ko'ruvchi, tasvirllovchi va baholovchi (garchi "sotsialistik realizm" namunasi sanalsa-da, realizmdan tamomila yiroq) epik asarlar yaratildi." [6:30]. Ikrom Otamurod she'riyatida ustuvor ko'rinish olgan ijtimoiy dard uning "Sopol siniqlari" nomli dostonida yaqqol bo'rtib turadi. Doston mazmunida musta'bid tuzum oqibatlarini, millatparvar, sofdil Vatan farzandlarining qatag'on qilinishi, vatanidan, xalqidan judo qilingan, Sibir

muzliklarida, qamoqxonalarda ayanchli azob-uqubatlar ichra yolg'izlik girdobiga mahkum bo'lgan millat qahramonlari timsoli gavdalanadi.

Unda Xayolot dunyosiga g'arq bo'lgan lirik qahramon osoyishta va chekka joy – yolg'izlikdan qo'nim topadi. *“Ikki tavaqasi o'ksik va siniq Xotira eshigiga umid ila”* boqarkan, o'zini yolg'iz olamda yolg'iz sezadi. Asardagi Holat ramzining adabiy-estetik va ijodiy-ruhiy omillarini anglash imkonini beruvchi misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

*Yolg'iz olamda yolg'izman,
Ruhim ostonasida turar
yolg'izlik.
Ko'rishar –
Umid ila Xotira eshigin
ikki tavaqasi.*

O'ksik va siniq ikki tavaqasi. [2:74].

Kishining umidlari amalga oshmasa, ko'ngli o'ksiydi. O'ksigan ko'ngil esa xotiraga beriladi. Ammo xotira uni xursand qilolmaydi. Chunki *Xotira – ko'hna hasrat, qadriyatlar sho'r boylagan, zorlar poylar ostida g'ichirlagan, to'rg'aylar ko'zidan jola siriqqan, qilichlar damidan nola to'kilgan, orzularni shamollar quritgan, oftob vola so'lini simirgan* bir tarzda lirik qahramonning yolg'izlik iztirobi sababiyatini ochiqldaydi. Shundan shoirning ko'ngli naqadar katta bir iztirobga esh bo'lib azoblanadi:

*Sopol siniqlari – ruhim ildizi.
Xotira:
tuproqning suyaklari,
oynining gullolasi,
qo'zigul qadog'idan tomizg'i – shudring,
sho'r boylagan qadr,
poylar ostida g'ichirlagan zor,
to'rg'aylar ko'zidan siriqqan jola,
qilichlar damidan to'kilgan nola,
shamollar quritgan orzu,
oftob so'lin simirgan vola. [2:90].*

Ikrom Otamurod she'riyati bilan tanishish jarayonida shoir yolg'izlik obrazining badiiy va ijtimoiy salmoqqa ega yana bir qator ma'nolarini ochishni maqsad qilganini ko'ramiz. Xususan, shoir o'zini qiynagan dard manzarasini ham yolg'izlik suratida ko'radi. Jumladan, “Sen” nomli she'rda ruhiyatning aqlga bo'ysunmaydigan evrilishlari – tovlanishlari-yu qayroqi badiiy tafakkurini shunday tasvirlaydi:

*Sen – yolg'izlik kabi jimjit.
Sen – yolg'izlik kabi go'zal...
Sen – yolg'izlik kabi g'amgin..
Sen – yolg'izlik kabi yolg'iz...
Sen – yolg'izlik kabi.
Sen – yolg'izlik...
Sen – ... [7:24].*

Ikrom Otamurod yolg'izlik falsafasi talqinida dono xalqimiz yaratgan maqol va matallardan, iboralardan juda oqilona va san'atkorlik bilan foydalanadiki, natijada shoir tilga olgan maqollar qayta boshdan she'riy umrini o'tay boshlaydi.

“Yolg'iz cho'kirtakning tuprog'i engil, terisi yupqa... [8:27].

Yoki,

Kambag'alning yolg'iz qo'zisiga qashqir tegar. [8:99] kabi misralar “Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas” tarzidagi xalq maqoliga mazmunan yaqinligini ko'rish mumkin. Ta'kidlash joizki, ayni o'rinlarda shoir folklorizmlarning analitik turidan, uning oddiy hamda murakkab ko'rinishlaridan juda o'rinli foydalangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ikrom Otamurod bugungi o'zbek adabiyotida katta hissiy kuchga ega bo'lgan ijodkorlar sirasiga kiradi. U o'z she'riyati bilan o'zbek nazmini yangi ohanglar va yangi mavzular, o'lmas g'oyalar bilan boyitib kelmoqda. Shoir iste'dodining betakrorligi, nafosati, ramziyligi, falsafiyligi va har bir so'zning, jumlaning tagdor, muayyan “ishora”larga boyligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: «Fan», 2004.
2. Ikrom Otamurod. Tavr. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2005.
3. Ikrom Otamurod. Tag'azzul: She'rlar va dostonlar. – Toshkent: «Sharq», 2008.
4. Jo'raqulov U. “Huviyyat” asrori. / Otamurod Ikrom. Huviyyat. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2019.
5. Мейлах Б.С. Талант писателя и процессы творчества. – Ленинград: «Наука», 1969.
6. Quronov D. Adabiётshunoslikka kirish. – Toshkent: «Xalq merosi», 2004.
7. Ikrom Otamurod. Xaritagatushmagan joy. – Toshkent: «Sharq», 2011.
8. Ikrom Otamurod. Sen // She'rlar va doston. – Toshkent: «Qatortol-Kamolot», 1999.

REZYUME. Mazkur maqolada Ikrom Otamurod poeziyasi zamiridagi yolg'izlik falsafasiga oid ruhiyat talqinlari xususida so'z yuritiladi. Muallif Ikrom Otamurod lirikasida ifodalangan falsafiy mushohadalar va shoirning ruhiyat talqiniga oid qarashlarini tahlil etgan.

РЕЗЮМЕ. В этой статье рассказывается о духовных интерпретациях философии одиночества, лежащих в основе поэзии Икрама Отамуро́да. Автор проанализировал философские наблюдения, выраженные в лирике Икрама Отамуро́да, и взгляды поэта на интерпретацию психики. В этой статье рассказывается о духовных интерпретациях философии одиночества, лежащих в основе поэзии Икрама Отамуро́да. Автор проанализировал философские наблюдения, выраженные в лирике Икрама отамуро́да, и взгляды поэта на интерпретацию психики.

SUMMARY. This article will talk about spiritual interpretations of the philosophy of loneliness in the Zamiri of Ikrom Otamurod poetry. The author analyzed the philosophical observations expressed in the lyrics of Ikrom Otamurod and the poet's views on the interpretation of the psyche.